

"Mening muzeydagi eng sevimli eksponatim"

O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyida "Muzeylar faoliyatida reklama siyosati" mavzusida seminar o'tkazildi. Ushbu seminar K.Behzod nomidagi Rassomchilik va dizayn instituti Muzeyshunoslik yo'nalishi o'qituvchilari va talabalari, shuningdek, Muzey xodimlari ishtirok etishdi. Seminar Muzey faoliyatini rivojlantirish maqsadida o'tkazildi. Seminar yakunida Facebook ijtimoiy tarmog'ida o'ziga xos **#muzey_challenge** musobaqa-chellenji o'tkazishga qaror qilindi. Yuqoridagi heshteg orqali barcha o'zi tayyorlagan videoroligi bilan ishtirok etishi mumkin.

Chellenj shartlari: videorolik hajmi 1 daqiqa, unda ishtirokchi muzeylardagi o'zining sevimli eksponatiga 1 daqiqa ichida original ta'rif berishi kerak. So'ng, ijtimoiy tarmoqqa joylashdan avval **#muzey_challenge** heshtegini yozib, Yulduz Narziyeva (<https://www.facebook.com/yulduz.narziyeva>)ni belgilashi shart. G'olib ishtirokchi aniqlangach, ularga qimmatbaho sovg'alar topshiriladi.